



# Journal of Natural Sciences

**№2**  
(2021)

<http://www.natsciences.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор</li><li>3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор</li><li>4. Султонов М-к.ф.д, доц</li><li>5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.</li><li>6. Хакимов К –г.ф.н., доц.</li><li>7. Азимова Д- б.ф.н.</li><li>8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц</li><li>9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.</li><li>10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц</li><li>12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика</b> институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчиб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**HUJAYRADA KECHADIGAN HAYOTIY JARAYONLARGA  
VIRUSLAR TA’SIRINI, JAMIYATGA TERRORIZM TA’SIRI MISOLIDA  
QIYOSIY TAHLIL QILISH**

**Maxammadiyev.D.M., Mavlonova.S.X., Aberqulov.E.**

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**ANNOTASIYA.** Hujayra tirik organizmlarning asosi bo’lib, unda kechadigan hayotiy jarayonlar murakkab bo’lganligi sababli ularni o’quvchiga yetkazishda qiyosiy usullardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Tirik organizm hujayralariga turli yo’llar bilan kirib olgan virus undagi hayotiy jarayonlar mexanizmlarini o’z foydasi hisobiga o’zlashtirsa, jamiyat ichiga kirib kelgan terrorizm uni qonunlarini buzib o’z manfaati yo’lida foydalanishga harakat qiladi. Ikkala hodisada ham doimimiy kurash olib boriladi.

**АННОТАЦИЯ.** Поскольку клетка является основой живых организмов, а жизненно важные процессы, происходящие в ней, сложны, использование сравнительных методов для передачи их читателю даёт очень хороший эффект. В то время как вирус, проникающий в клетки живого организма различными способами, пользуется преимуществами механизмов его жизненных процессов, терроризм, проникающий в общество, пытается использовать его в своих интересах, нарушая его законы. И в обоих случаях идет постоянная борьба.

**RESUME.** Cell is main part of the alive organisms, that is why their life processes are complicated it is effective to use comparative methods to instruct pupils. Virus which entered alive organisms cells in kinds of ways reclaims their life process mechanisms and terrorism which entered society breaks their laws and it tries to use in its own concern. It is fought in both events.

**Kalit so’zlar.** fundamental, molekulyar biologiya, genetik injeneriya, integratsiya, xromosoma, boshqaruv apparati, suverenitet, metabolizm, energiya almashinuvi, modellashtirish texnologiyasi, analogiya, kanserogen modda, irsiy struktura, nuklein kislota.

**Ключевые слова:** фундаментальный, молекулярная биология, генная инже-нерия, интеграция, хромосома, аппарат управления, суверенитет, метаболизм, энергообмен, технология моделирования, аналогия, канцерогенное вещество, генетическая структура, нуклеиновая кислота.

**Key words:** fundamental, molecular biology, genetic engineer, integrates, chromosome, govern apparatus, samreignty methobolism, energi exchangig, texnology of modelling, analogiy, matter of cancerogen heredity structure nuclein, acid.

Ma'lumki, respublikamizdagi o'rta maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan o'quv jarayonlarida biologiyaning fundamental fanlari bo'lgan molekulyar biologiya, genetika, o'simliklar fiziologiyasi, genetik injeneriya, biologik kimyo fanlarini o'qitishda fanlar integratsiyasini ta'minlash va o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish lozim bo'ladi,

Jumladan, hayotiy jarayonlarning molekulyar mohiyatini o'rganishda organizmlarning tuzilmasi va jarayonini qiyosiy tahlil qilish yaxshi samara beradi. Masalan, ko'pchilik yoshlarda organizmlarning hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi va uning tub mohiyatini tushunib yetmaslik sabablarini oldini olish maqsadida bu jarayonni viruslar faoliyati misolida ko'rsatib o'tamiz.

Viruslar tabiatdagi barcha tirik organizmlarda uchrab, ularga zarar yetkazadi yoki butunlay halok qiladi. Ularning bu xususiyatlarini modellashtirish texnologiyasi, qiyosiy analogiya metodi yordamida tushintirilsa, o'quvchi nafaqat tabiiy tuzilmalar va ulardagi hayotiy jarayonlarni, balki ijtimoiy tuzilmalar va ularda kechadigan jarayonlarni anglab yetadi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'xshashliklarni, umumiy qonuniyatlarni, hujayra tuzilishi va unda boradigan jarayonlarni jamiyatning asosi bo'lmish davlat tuzilmasiga qiyoslab o'rgansak, ularda umumiy o'xshash qonuniyatlarni borligini anglaymiz. Ular quyidagilardir: boshqaruv; modda va energiya almashinuvi; axborot almashinuvi; rivojlanish; tashqi yot narsa va hodisalarga ta'sirlanishi. Shundan biz tashqi ta'sirga qarshi hosil qilingan qo'zg'alish va javob reaksiyasi to'g'risida mulohaza yuritamiz.

Hujayra o'zining immun sistemasi orqali ichki va tashqi har xil ta'sirlardan o'zini himoya qiladi. Hujayra uchun tashqi ta'sirlarning eng noqulayi hujayra boshqaruv apparatiga, ya'ni, yadrosiga bo'lgan ta'sirdir. Yadroning zararlanishi unda mavjud bo'lgan hujayra uchun xos bo'lgan barcha belgi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan xromosomaning buzilishiga sabab bo'ladi. Natijada boshqaruv izdan chiqadi. Hujayraga uchun bunday tashqi ta'sirlarga, antitelolar, turli xil kimyoviy kanserogen moddalar, fizik nurlar, mayda mikroblar va boshqalar kiradi. Ular hujayra uchun har vaqt xavf soladi. Ular ichida eng xavflisi mikroblarning bir shakli bo'lgan viruslardir.

Jamiyat taraqqiyoti esa, davlat tuzilmasi bilan bog'liq bo'lib, uning rivoji uchun xavf soladigan omillar: ichki yoki tashqi unsurlar va ular tomonidan vujudga keltiriluvchi katta va kichik nizolar, har xil siyosiy o'yinlar, ularning oqibati o'laroq, vujudga keluvchi urushlar, jazo choralari va hokazo (bundan ko'zlangan maqsadlar turlicha). Bular ichida eng xavflisi tashqi va ichki unsurlar tomonidan boshqaruv organi va qonunlarning buzilishidir. Shunday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan unsur - davlatni, uning qonunlarini, fuqarolarning erkinliklarini

tan olmaydigan, uning suverenitetiga rahna soluvchi o'z qonun - qoidalariga ega bo'lgan, lekin o'z manfaatlari yo'lida o'zgaruvchan bo'lib, ustuvorligi ta'minlanmagan, fuqaroligi, tarixan shakllangan etnik birliklari bo'lmagan ma'lum manfaatlar yo'lida muvaqqat birikkan guruh yoki to'dalar hisoblanmish – terrordir.

Avval biz virus nima ekanligi, uning tuzilishi va xususiyati haqida fikr yuritib, keyin uning terror tuzilmasiga, uning xususiyatlariga solishtirib, qiyoslash orqali ulardagi o'xshashliklarni farqlab, virusga, terrorga qarshi kurash chora - tadbirlarini belgilash, ularning ta'siriga tushmaslikni oldini olish, ularning tabiiy manbaalarini yo'qotish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Viruslar haqiqiy irsiy parazitlardir. Bunday deyilishiga sabab, ularning o'zlarining mustaqil metabolizm sistemasi shakllanmagan. Shu sababli ular parazitlikka, ya'ni, tekinoxorlikka o'tishgan. Viruslar tuzilishiga ko'ra irsiy struktura - nuklein kislota DNK yoki RNK, uni o'rab turuvchi oqsil qobiqdan iborat. Shu bois, ular hujayra bo'la olmaydi. Hujayra bo'lishi uchun uning o'zining mustaqil boshqaruvi, mustaqil modda va energiya almashinuvi ya'ni, metabolizmi bo'lishi kerak.

Nuklein kislota bu - o'zida belgi xususiyatni mujassamlashtirgan DNK yoki RNKdir. Oqsil bu - belgi xususiyatni namoyon qiluvchi yoki himoyalovchi qobiq.

Demak, nuklein kislotalarda belgi-xususiyat saqlanib qolib genotipik, oqsillar esa uni yuzaga chiqishini fenotipik jihatdan ta'minlaydi.

Agar biz hujayra va davlat tuzilmalarini qiyoslasak, hujayralardagi DNK yoki RNK bu- qonunlar, oqsil - bu odamlardir. Bunday deyilishiga sabab, hujayrani DNKlardan iborat xromosomalar yig'indisi bo'lgan yadro boshqaradi. Hujayradagi jarayonlarni oqsil bajaradi. Boshqacha aytganda, davlatni qonunlar boshqaradi, undagi jarayonlarni qonun doirasida insonlar bajaradi.

Viruslar mustaqil yashay olmaydi, ular hujayra ichiga kirgandagina tirikligini namoyon qila oladi. O'zining DNK yoki RNK sini, oqsilini hujayradagi DNK yoki RNK, oqsil hisobiga tiklashadi. Virus tanasidagi moddalar aslida u hujayralarniki. Virusning yashashi, mavjudligi faqat hujayra hisobiga amalga oshadi, hujayraning ayrim qismlarini o'ziga moslashtirib o'zgartiradi. Shu sababli virusning nuklein kislotalari va oqsillari hujayranikiga aynan to'g'ri kelmaydi.

Virusning tuzilmasi va hatti-harakatini terrorga qiyoslasak, o'xshashliklar borligini sezamiz.

Terrorchilar virus kabi xo'jayini hisobiga yashaydi. Virusning mavjudligi hujayraga, terrorniki davlatga bog'liq. Viruslar irsiy parazitlardir, ular hujayra ichida aktiv bo'lib, tirikligini namoyon qiladi. Terror o'z g'oyalarini, qonunlarini, davlat va jamiyat qonunlarini bir qismini buzgan holda o'ziga moslashtiradi, lekin bu qonunlar o'z manfaatiga ko'ra tez o'zgaradi. Uni o'zgartiruvchi ma'lum bir

shakllangan organi yoʻq, qaysidir ustun guruhlar tomonidan oʻzgartiriladi. Ularda fuqarolik yoʻq, bunga sabab ularda davlat yoʻq. Uning chegarasi yoʻq, konstitutsiyasi yoʻq, shakllangan etnik birliklari yoʻq, shunday boʻlgandan keyin ular manfaatini koʻzlovchi qonunlari ham boʻlmaydi. Shuning uchun davlat konstitutsiyasini, qonunlarini buzishga harakat qiladi. Davlatni parokandaga uchratib, oʻzlari davlat boshqaruvini qoʻlga olmoqchi boʻladi. Maqsad davlatni rivojlantirish emas, balki, boylik orttirish. Agar davlat boshqaruvi terrorchilar qoʻliga oʻtib qolsa, davlat boyliklari talanguncha davlat ular qoʻlida boʻladi. Moddiy neʼmatlar yoʻq qilingach va oʻz tasarrufiga oʻtkazgach, oʻzlari davlat boshqaruvini tashlab ketishadi, yoki aksincha, muvaqqat hukumatni shakllantirishadi. Bu hukumat ham tezda yemiriladi, sababi undagi qonunlar va uning ijrosi davlat va xalq manfaatiga toʻgʻri kelmay qoladi.

Biror marotaba terrorchilarning vatani yoki davlati bor deb eshitganmisiz? Ular oʻz manfaati yoʻlida jamiyat kushandalari, qonun oʻgʻrilari, moddiy boylik talonchilari hisoblanishadi.

Xulosa oʻrnida shuni aytmoqchimizki, tirik organizmlarda va ularning jamoalarida tuzilmalar va jarayonlar mukammalligi taʼminlanganida yoki yot zarrachalarga qarshi tura olganida, tekinxoʻrlikka yaʼni, parazitlikka oʻrin qolmagan boʻlardir. Buning uchun hujayra yoki organizmda immunitet, davlat yoki jamoada maʼnaviyat va mafkura kuchli boʻlishi lozim. Bunga har bir funksional tuzilma javobgardir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Zufarov K.A., "Gistologiya".T, "Meditsina"-1991.
- 2.Toʻychiyev S., Toshmonov N.,Gistologiya, embriologiya, sitologiya, "Yangi asr avlodi". T. 2005.
- 3.Mirxamidova P va boshq. Biokimyó,amaliy mashgʻulotlar.T. Universitet 2002 y.
- 4.Zikiryoiev A., Mirxamidova P. Oʻsimliklar bioximiyasidan amaliy mashgʻulotlar. T.: «Mehnat» 2001 yil.
5. R.Abdullayev va boshqalar "Oʻsimliklar bioximiyasidan amaliy mashgʻulotlar". 1994 yil. Toshkent.
6. А.А. Чиркин «Практикум по биохимии». «Новое знание» 2000 год
7. То`raqulov. Yo.X. Biokimyó T:"O`qituvchi"1998 yil
8. Николаев.А.Я. Биологик химия Т "Ибн Сино" 1991год